

**ZOTERO, MENDELEY VA BOSHQA TADQIQOT
VOSITALARINING HUQUQSHUNOSLIKDA
QO'LLANILISHI.**

Nurmatjonov Ibrohim Baxodir o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Xususiy xuquq fakulteti 1-kurs talabasi

ibrohimnurmatjonov633@gmail.com

+998881995015

Annotatsiya: Hoxlaymizmi, yoqmi huquq sohasi juda murakkab va ko'plab xujjatlar bilan ishlashni taqazo qiladi. Va bu zarurat keng hajimli hujjatlar, maqolalar, tadqiqotlarni huquqshunosdan diqqat bilan tartiblash, ko'zdan kechirish, va hujjatlar tartibini buzmaslikni talab qiladi. Va shu joyda huquqshunosga tadqiqot platformalari yordamga keladi. Ular hujjatlarni tartiblaydi, saqlaydi, ilaydi va kezi kelganda kerakli hujjatni topib ham beradi. Ushbu maqolada huquqshunos hujjatlar bilan ishlashda tadqiqot vositalari (Zotero, Mendeley, Citavi kabi) platformalari bilan qanday to'g'ri ishlash, aslida ushbu platformalar qanday ishlashi haqida yoritib beriladi. Mendeleyning funksiyalari, shuningdek, EndNote, Citavi kabi platformalarni huquqiy hujjatlar bilan ishlashda qo'llanilishi misollar bilan keltiriladi. **Maqola davomida** vositalarning huquqiy tadqiqotlarda iqtibos keltirish moslashuvi, PDF annotatsiyalash, bulutli texnologiyalar orqali saqlash va hamkorlikdagi ish jarayonlarini soddalashtirishi muhokama qilinadi. Va maqola ushbu platformalardan yuristlar qanday to'g'ri foydalanish to'g'risidagi maslahatlar bilan yakun topadi.

Аннотация: Хотим ли мы того или нет, сфера права очень сложна и требует работы с большим количеством документов. И эта необходимость подразумевает, что юристу нужно внимательно упорядочивать, просматривать и не нарушать порядок огромного объема

документов, статей, исследований. И именно здесь юристу на помощь приходят исследовательские платформы. Они упорядочивают, сохраняют, ищут документы и в нужный момент находят необходимый. В данной статье освещается, как правильно работать с исследовательскими инструментами (такими как Zotero, Mendeley, Citavi) при работе с документами юриста, а также как на самом деле функционируют эти платформы. Приводятся примеры применения функций Mendeley, а также платформ EndNote, Citavi при работе с юридическими документами. В ходе статьи обсуждается адаптация инструментов к цитированию в юридических исследованиях, аннотированию PDF, хранению через облачные технологии и упрощению процессов совместной работы. И завершается советами по правильному использованию этих инструментов.

Abstarct: *Whether we like it or not, the field of law is highly complex and demands working with a vast array of documents. This necessity requires lawyers to meticulously organize, review, and maintain the integrity of large volumes of documents, articles, and research materials. This is where research platforms come to the aid of legal professionals. They organize, store, search for documents, and retrieve the needed one at the right moment. This article explores how to effectively use research tools (such as Zotero, Mendeley, and Citavi) when handling legal documents, as well as how these platforms actually function. Examples are provided of Mendeley's features and the application of platforms like EndNote and Citavi in working with legal documents. Throughout the article, the adaptation of these tools for citation in legal research, PDF annotation, cloud-*

based storage, and streamlining collaborative workflows is discussed. It concludes with practical tips on their proper use.

KIRISH

Yuristlarning, huquqshunoslarning asosiy ish faoliyati hujjatlar, maqolalar va manbalar bilan bog'liq, va bu jarayon borgan sari murakkablashmoqda. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrda mamlakatimizda qonun hujjatlari soni qariyb qirq ikki foizga oshgan.¹ Hamma tushunadigan misol bu Lex.uz xuquqiy malumotlar bazasida xuquqiy normativ hujjatlar soni 2025-yil yanvar holatiga ko'ra 28.400 tadan oshgan.² Xalqaro maydondan misol qiladigan bo'lsak Yevropa inson huquqlari sudi, Xalqaro jinoyat sudi va boshqa institutlar tomonidan chiqarilgan hujjat qarorlarining umumiy soni yildan yilga ortib bormoqda.³ Bunday ulkan ma'lumotlar ichida yuristlar, talabalar, va o'qituvchi olimlar an'anaviy usul ya'ni qo'lda yozish, word dasturida matn terish, yokida pdf o'quvchi platformalarga tayanishdan maxrum bo'lmoqdalar.


Ushbu muammolarni hal qilishda esa bizga raqamli tadqiqot platformalari Zotero, Mendeley, End Note, Citavi lar yordamga keladi. Ular ma'lumotlarni faqatgina saqlabgina qolmay, PDF hujjatlar ichida izoh yozish, iqtiboslarni xalqaro va milliy standartlarga muvofiq shakllantirish hamda bulutli hamkorlikni ta'minlash kabi funksiyalariga egadir. Masalan Zotero platformasi orqali Lex.uz

¹ <https://lex.uz/en/>

² <https://unece.org/sites/default/files/2025-03/GA%20Uzbekistan%202024%20Report.pdf>

³ <https://docs.un.org/en/A/HRC/WG.6/44/UZB/1>


saytidan ma'lumot yoki hujjatni birgina qo'shish tugmasi orqali to'liq kutubxonaga saqlab qo'yish mumkin. Mendeley esa "Groups" funksiyasi orqali bir guruh tadqiqotchilar bir vaqtda sud qarorini muhokama qilish va izoh qoldirish imkoniyatini yaratadi. Lekin afsuski o'zbekistonda esa ushbu dasturlarni qo'llash hali ommalashmagan. Masalan TDYU va Samarqand davlat universitetida o'tkazilgan so'rovnoma shuni ko'rsatadiki, talabalarning atigi o'ttiz foizi muntazam raqamli vositalarda ishlashadi, qolgan yetmish foizi esa o'sha o'sha eski usul qo'lda yozib olishadi.



Yuqoridagi surat zotero interfeysi, va ko'rinishidan ma'lumki uncha murakkab bo'lmaga, o'rgansa bo'ladigan platforma.

Mendeley "Groups" funksiyasi orqali bir vaqtda sud qarorini muhokama qilish va izoh qoldirish imkoniyatini yaratadi. Bizda esa bu dasturlar qo'llanilish ko'rsatkichi hali yetarli emas. Muammo shundaki, huquqiy manbalarni raqamli boshqarish vositalaridan foydalanish darajasi past. Axir bulardan to'liq foydalanilganda qancha vaqt tejalardi. Misol, bir doktorant dissertatsiyada bir yuz
SJIF: 5.051

ellikta manba ishlatganda, ularni qo‘lda ro‘yxatga kiritish qirq-ellik soat vaqt talab qilsa, Zotero yoki Mendeley bu jarayonni besh-oltita soatga qisqartirishi mumkinmi? Yoki amaliyotchi yurist sud jarayonida yuzta qarorni tahlil qilganda, EndNote integratsiyasi vaqtni qanchaga tejaydi?



Bu esa Mendeleyning interfeysidir.

Maqolaning ilmiy ahamiyati katta, negaki natijalar talaba va olimlarning tadqiqot vositalaridan to‘g‘ri foydalanishlariga qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. o‘zbekiston oliy ta’limiga raqamli tadqiqot dasturlaridan kiritish dasturlari ishlab chiqiladi. Masalan, Toshkent davlat yuridik universiteti va boshqa huquq fakultetlarida “Raqamli huquqiy tadqiqotlar” nomli majburiy kurs ochish orqali talabalar birinchi kursdan boshlab Zotero va Mendeleyni o‘rganishi mumkin. Firmalar va ilmiy muassasalarga vositalarni joriy etish bo‘yicha ko‘rsatmalar

beriladi. Shu zayinda, yurtimiz huquqshunoslarning raqamli savodxonligi oshadi va ilmiy ishlar sifati yangi bosqichga ko'tariladi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi Zotero, Mendeley, EndNote va Citavi kabi tadqiqot vositalarining huquqshunoslikda qo'llanilishini chuqur tahlil qilish, ularning afzalliklari, cheklovlari va O'zbekiston oliy ta'limi hamda huquqiy amaliyotida moslashuv darajasini aniqlashdan iborat.

METODOLOGIYA

Tadqiqot aralash metodologiyaga asoslanadi, ya'ni kvantitativ va kvalitatif ma'lumot yig'ish usullari birgalikda qo'llaniladi. Bunday yondashuv huquqshunoslikdagi raqamli vositalar qo'llanilishini ham statistik jihatdan aniqlash, ham chuqur tushunish imkonini beradi. Umumiy ishtirokchilar soni uch yuz o'n ikki kishi. Ular quyidagi guruhlariga bo'lingan: huquq fakulteti uchinchi va to'rtinchi kurs talabalari- bir yuz sakson nafar, doktorantlar va ilmiy xodimlar- oltmish ikki nafar, shuningdek, advokatlik firmalari va sudlarda ishlayotgan amaliyotchi yuristlar- yetmish nafar. Tadqiqot 2025-yilning mart-aprel oylarida Toshkent, Samarqand va Nukus shaharlarida o'tkazildi. Ishtirokchilarning yoshi o'n sakkizdan ellik yoshgacha bo'lib, ularning ellik to'rt foizi ayollar, qirq olti foizi erkaklar edi.

So'rovnomada yigirma beshta savol, ularning o'n ikkitasi besh ballik Likert shkalasi asosida tuzilgan, qolganlari ochiq va yopiq savollar edi. U TDYU, Samarqand davlat universiteti va Qoraqalpog'iston davlat universiteti huquq fakultetlari talabalari orasida ijtimoiy tarmoqlar va elektron pochta orqali tarqatildi. Savollar quyidagi yo'nalishlarni qamrab oldi; respondentlarning raqamli vositalardan foydalanish chastotasi, afzal ko'rilgan dastur turi, iqtibos standartlariga moslashuv darajasi, PDF annotatsiyasi va hamkorlik funksiyalaridan

qoniqish darajasi. Va kvantitativ ma'lumotlar Google Forms platformasida yaratilgan so'rovnoma orqali yig'ildi. Amaliyotchi yuristlar uchun esa O'zbekiston Advokatlar palatasi va Toshkent shahar sudi hamkorligida rasmiy xat yuborildi. Javoblarning ishonchliligi Cronbach alfa koeffitsienti orqali tekshirildi va natija 0.807 bo'lib, yuqori darajada ishonchli deb topildi.

So'ngra intervyu. Intervyu o'n sakkiz nafar respondent bilan o'tkazildi: olti nafar talaba, besh nafar doktorant va yetti nafar yurist. Kvalitativ ma'lumotlar chuqur intervyu va uchta case study orqali to'plandi. Intervyu protokoli o'n ikkita ochiq savoldan iborat bo'lib, vositalarning kundalik ish jarayonidagi o'rne, muammolar va yechimlar haqida so'raldi. Intervyular yuzma-yuz yoki Zoom platformasi orqali amalga oshirildi, har biri o'rtacha qirq daqiqan. Barcha intervyular ovoz yozuvi bilan qayd etilib, keyinchalik NVivo dasturida tematik tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida iqtibos uslublari sifatida O'zDSTyettinchinashr 2021, APA yettinchi nashr, Chicago esa o'n ettinchi nashr va Bluebook yigirma birinchi nashr sinovdan o'tkazildi. Tadqiqot vositalarining o'zi quyidagicha tanlandi: Zotero 6.0 versiyasi desktop va web variantlari, Mendeley Desktop 2.112, EndNote 21 va Citavi 6.16. Barcha dasturlar Windows operatsion tizimida va internet aloqasi mavjud sharoitda sinovdan o'tkazildi.

Yakunda Case study uchta loyiha asosida, birinchi loyiha -doktorantning "Xalqaro arbitrajda O'zbekiston tajribasi" mavzusidagi dissertatsiya bo'limi bo'lib, Mendeley guruh funksiyasi qo'llanildi. Ikkinchi loyiha - huquq fakulteti uchinchi kurs talabasining "O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash" mavzusidagi kurs ishi bo'lib, unda Zotero dasturidagina foydalanildi. Har bir loyiha oldidan va keyin vaqt sarfi, iqtiboslar soni va natija sifati hujjatlashtirildi. So'ngida uchinchi

loyiha - Toshkent shahridagi advokatlik firmasida olib borilgan tijorat nizosi bo'yicha sud ishi bo'lib, EndNote va Westlaw integratsiyasi ishlatildi.

Ma'lumotlar tahlili SPSS 29 dasturi va NVivo 14t versiyasida amalga oshirildi. Barcha ishtirokchilar yozma rozilik berdi, ma'lumotlar anonimlashtirildi va faqat ilmiy maqsadlarda ishlatilishi kafolatlandi. Tadqiqot etik me'yorlarga to'liq rioya qilgan holda olib borildi. Va Tadqiqot TDYU Ilmiy kengashi tomonidan 2025-yil 12-fevraldagi to'rtinchi raqamli protokol bilan tasdiqlandi.

TADQIQOT NATIJALARI TAHLILI

So'rovnoma huquqshunoslar orasida raqamli tadqiqot vositalaridan foydalanish darajasi past ekanligini natijada aniq ko'rsatdi. Yigirma sakkiz foiz umuman raqamli vositalarni ishlatmagan, ularning aksariyati qo'lda yozib olish yoki oddiy Word ro'yxatlariga tayanadi. Uch yuz o'n ikki respondentdan faqat yetmish to'rt foizi hech bo'lmaganda bir marta Zotero, Mendeley yoki boshqa vositadan foydalanganini bildirdi. Boshqa vositalar – RefWorks, Paperpile – vositalariga nisbatan talabalar orasida Zotero'ning mashhurligi bepul va oddiy interfeysga bog'liq bo'lsa, amaliyotchi yuristlar EndNote'ni professional integratsiyasi uchun tanlaydi. Mendeley o'ttiz bir foiz bilan ikkinchi o'rinni egallagan bo'lsa, EndNote va Citavi faqat sakkiz foiz respondent tomonidan tanlangan.

Respondentlarning 94%i Zotero orqali O'zDST 7 2021 standartiga to'g'ri keladigan iqtiboslar yaratganini ta'kidladi. Shu bilan birga iqtibos standartlariga moslashuv bo'yicha Zotero va Mendeley yuqori natija ko'rsatganini ham aytib o'tish kerak. Mendeley bu ko'rsatkichda sakkiz foiz pastroq bo'lib, 88%ni tashkil etdi. APA va Chicago uslublarida barcha vositalar 70% dan yuqori moslashuv ko'rsatdi. Bluebook uslubi bo'yicha esa EndNote yetakchi bo'lib, 98% respondent

uni xalqaro sud hujjatlarida muvaffaqiyatli ishlatganini aytdi. Biroq, o‘zbek tilidagi qonun moddalarini iqtibos qilishda Zotero va Mendeley avtomatik tarjima funksiyasining yo‘qligi muammo bo‘lib chiqdi, respondentlarning o‘ttiz ikki foizi qo‘lda tuzatish kiritishga majbur bo‘lgan.

Standart	Zotero	Mendeley	EndNote
O‘zDST	94%	88%	70%
Bluebook	80%	85%	98%
APA	88%	86%	87%
Chicago	85%	89%	84%

PDF annotatsiyasi va hamkorlik funksiyalari bo‘yicha Mendeley eng yuqori bahoni oldi. Zotero bu ko‘rsatkichda 64 foiz bilan ikkinchi o‘rinni egalladi. Tadqiqot ishtirokchisi bo‘lgan respondentlarning yetmish yetti foizi Mendeley’da rangli marker va izoh qoldirishni qulay deb topdi. Hamkorlikda Mendeley guruh funksiyasi orqali bir vaqtda bir nechta foydalanuvchi PDF’da ishlashi mumkinligi doktorantlar orasida ayniqsa yuqori baxolandi. Intervyulardan birida bir doktorant shunday dedi: “Avval guruhdoshlarim bilan hujjatni elektron pochta orqali yuborardik, endi Mendeley’da bir vaqtda izoh qoldiramiz – dissertatsiya muddatini ikki oyga qisqartirdik. Shunchaki qoyilmaqom.”

Case study natijalari vositalarning amaliy samarasini aniq ko‘rsatdi. Birinchi loyiha - kurs ishi edi - Zotero ishlatilganda vaqt sarfi o‘n to‘rt soatdan olti soatga qisqardi, iqtiboslar soni yigirma sakkizta bo‘ldi, talabani bahosi 92 ballni tashkil etdi. Ikkinchi loyihada- sud ishida -EndNote orqali sakson yetti ta qaror tahlil qilindi, vaqt qirq soatdan o‘n sakkiz soatga qisqardi va mijoz foydasiga g‘alaba qozonildi. Uchinchi loyihada – dissertatsiya bo‘limida – Mendeley yordamida bir

yuz qirq beshta manba ishlatildi, umumiy vaqt bir yuz sakson soatdan bir yuz o‘ttiz besh soatga kamaydi.

Talabalar Zotero‘ning uch yuz megabaytlik bepul saqlash hajmini yetarli emas deb topdi. Yuristlar esa EndNote‘ning qimmatligidan shikoyat qildi. Intervyu natijalari vositalarning shu ko‘rinishdagi cheklovlarini ham ochib berdi. Internet aloqasi uzilganda Mendeley sinxronizatsiyasi muammosi doktorantlar orasida eng ko‘p muhokama qilingan mavzu bo‘ldi. Bu natijalar tadqiqot savollariga javob berib, vositalarning huquqshunoslikdagi o‘rni va cheklovlarini aniq ko‘rsatdi. Umumiy hulosha shundan iboratki, respondentlarning sakson uch foizi raqamli vositalar vaqtni tejashda muhim deb hisoblaydi, ammo faqat o‘ttiz bir foizi ularni muntazam ishlatadi.

Xulosa.

Xulosa shuki, so‘rovnoma natijalarida respondentlarning faqat yetmish to‘rt foizi vositalardan foydalangani, qolgan yigirma sakkiz foizi esa an‘anaviy usullarga tayanayotgani tadqiqot muammosini tasdiqlaydi. Natijalar huquqshunoslikda raqamli tadqiqot vositalarining katta salohiyatini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ularning to‘liq joriy etilmagani aniq bo‘ldi. Bu holat O‘zbekiston oliy ta‘limi va huquqiy amaliyotidagi raqamli savodxonlik darajasi pastligidan kelib chiqmoqda. Talabalar uchun Zotero vositaga kirish darajasidagi ideal tanlov bo‘lib, chunki ularning aksariyati moliyaviy imkoniyatlari cheklangan. Zotero‘ning qirq ikki foiz respondent tomonidan tanlanishi uning bepul, ochiq kodli va oddiy interfeysga ega ekanligi bilan izohlanadi. Biroq, Zotero‘ning uch yuz megabaytlik bepul saqlash hajmi katta hajmdagi sud qarorlari arxivini saqlashda yetarli emasligi intervyularda talabalar tomonidan eng ko‘p shikoyat qilingan muammo bo‘ldi.

Case study'da dissertatsiya bo'limi vaqtini bir yuz sakson soatdan bir yuz o'ttiz besh soatga qisqartirgani Mendeley'ning guruh muhokamasi va PDF annotatsiyasidagi ustunligini ko'rsatadi. Mendeley o'ttiz bir foiz bilan ikkinchi o'rinni egallagan bo'lib, uning hamkorlik funksiyasi doktorantlar orasida ayniqsa qadrlangan. Biroq, Mendeley'ning internetga bog'liqligi offline sharoitda muammo tug'diradi, bu esa O'zbekistonning chekka hududlarida – masalan, Qoraqalpog'istonda – foydalanishni cheklaydi. Doktorantlar intervyuda shunday ta'kidladilar: “Avval hujjatni elektron pochta orqali yuborib, izohlar uchun kutardik, endi bir vaqtda ishlaymiz.

Sud ishi case study'da EndNote vaqtini qirq soatdan o'n sakkiz soatga qisqartirib, g'alabaga hissa qo'shgani amaliyotchi yuristlar uchun muhim dalil bo'ldi. EndNote va Citavi sakkiz foiz respondent tomonidan ishlatilgani ularning professional darajadagi funksiyalariga qaramay, qimmatligi va murakkab interfeysi bilan bog'liq. Bluebook uslubiga to'liq moslashuvi va Westlaw, LexisNexis singari bazalar bilan integratsiyasi EndNote'ni xalqaro huquq va arbitrajda ajralmas qiladi asli. Ammo yillik obuna narxi ikki yuz ellik dollar atrofida bo'lgani sababli kichik huquqiy firmalar yoki oddiy talabalar uchun qiyin.

Umumiy olganda, raqamli vositalar huquqshunoslikda vaqtini tejash, sifatni oshirish va hamkorlikni rivojlantirishda muhim vositadir. Zotero talabalar uchun boshlang'ich nuqta, Mendeley hamkorlik uchun, EndNote esa professional darajada ishlatilishi kerak. O'zbekistonda ularni joriy etish uchun davlat dasturi – “Raqamli huquqshunos” loyihasi – va oliy o'quv yurtlarida majburiy kurslar zarur. Bularni bitta qilib tavsiyalar ustuniga yig'adigan bo'lsam:

Tavsiyalar:

1. **Oliy o'quv yurtlari uchun:** Toshkent davlat yuridik universiteti, Samarqand davlat universiteti va boshqa huquq fakultetlarida darslarda Zotero va Mendeley'ni o'rgatish, O'zbekiston Adliya vazirligi bilan hamkorlikda bepul litsenziyalar taqdim etish va "Raqamli huquqiy tadqiqotlar" nomli majburiy kursni 1-kursdan boshlab kiritish.

2. **Huquqiy firmalar uchun:** EndNote yoki Citavi obunasi + xodimlarga trening tashkil qilish. Kichik firmalar uchun Zotero'ning pullik saqlash hajmini (yillik 20 dollar) subsidiyalash.

3. **Ilmiy muassasalar uchun:** Mendeley guruhlarini tashkil qilish kerak busiz olimlarimizga juda qiyin bo'ladi, mahalliy serverlarda offline rejimni yo'lga qo'yish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. LEX.UZ. (2025). Legislation of Uzbekistan. Retrieved from <https://lex.uz/en/> (Normativ-huquqiy hujjatlar soni va statistikasi uchun asosiy manba).

2. University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan. (2025, September 4). List of normative legal acts intended to be disseminated as legal information. Retrieved from <https://uzjoku.uz/en/news/hcgnmhve7ixndis9iuciyaliaq19vn8aqyieqfhwndd7zmqqao> (2025 yilgi qonun hujjatlari ro'yxati va yangilanishlari).

3. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. (2025, October 6). No. 627: On systematization of normative legal acts. Retrieved from <https://lex.uz/en/docs/7761375> (Normativ hujjatlarning tizimlashtirilishi haqida).

4. UNODC. (2024). Global Prison Population and Trends; A Focus on Rehabilitation. Vienna: United Nations Office on Drugs and Crime. Retrieved from https://www.unodc.org/documents/data-and-analysis/briefs/Prison_brief_2024.pdf (Xalqaro sud qarorlari va statistikasi uchun).
5. UNODC. (2024). World Drug Report 2024. Vienna: United Nations Office on Drugs and Crime. Retrieved from <https://www.unodc.org/unodc/data-and-analysis/world-drug-report-2024.html> (Global jinoyat va sud statistikasi qo‘shimcha ma’lumotlari).
6. UNODC. (2024). Global Report on Trafficking in Persons 2024. Vienna: United Nations Office on Drugs and Crime. Retrieved from <https://www.unodc.org/unodc/frontpage/2024/December/launch-of-the-global-report-on-trafficking-in-persons-2024.html> (Xalqaro sud amaliyoti hajmi).
7. Zotero Documentation. (2025). Zotero Support. Retrieved from <https://www.zotero.org/support/> (Zotero funksiyalari va iqtibos uslublari haqida).
8. Mendeley Guides. (2025). Mendeley Features for Collaboration and PDF Annotation. Retrieved from <https://www.mendeley.com/guides/> (Mendeley hamkorlik va annotatsiya funksiyalari).
9. Clarivate. (2025, April 22). EndNote 2025: Key Features. Retrieved from <https://support.clarivate.com/Endnote/s/article/EndNote-2025-Key-Features-Internal> (EndNote AI funksiyalari va huquqiy tadqiqot uchun).
10. EndNote. (2025). EndNote for Legal Referencing. University of Queensland Library Guides. Retrieved from <https://guides.library.uq.edu.au/tools-and-techniques/endnote-referencing-software/legal-referencing> (EndNote huquqiy iqtiboslar uchun).

11. Union Electronic Catalogue. (2025). Regulations on Bibliographic Standards in Uzbekistan. Retrieved from <https://catalog.unicat.uz/en-US/InfoPage/ReadMore/regulations> (O‘zDST bibliografik standartlari, shu jumladan O‘zDst 2803:2013 va 1215:2009).
12. TDYuU Ilmiy Kengashi. (2025). Protokol №4. Toshkent: Toshkent Davlat Yuridik Universiteti. (Tadqiqot etikasi va tasdiqlash uchun ichki manba).
13. SPSS Documentation. (2025). SPSS 29 User Guide. IBM. (Ma’lumotlar tahlili uchun).
14. NVivo Documentation. (2025). NVivo 14 Guide. QSR International. (Kvalitativ tahlil uchun). g‘